



“JASORAT FENOMENI: ABDULLA QODIRIYNING “O’TKAN KUNLAR” VA HARPER LINING “TO KILL THE MOCKINGBIRD” ASARLARI TALQINIDA AXLOQIY ONGNING BADIY MODELLASHTIRILISHI”

Mehrinigor Baxodirovna Axmedova,

f.f.d. (DSc)

m.b.axmedova@buxdu.uz

To’raqulova Muhayyo Sevdior qizi

1-kurs magistr talabasi, BuxDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek adabiyotidagi «mardlik» fenomeni axloqiy ongning badiiy modeli tarzida o'rganiladi. Maqolada Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» va Harper Lining «To Kill a Mockingbird» kabi ommaga mashhur bo'lgan asarlarida jasorat tushunchasiga bo'lgan o'zbek va ingliz madaniyatiga xos subyektiv qarashlar asar qahramonlarining turli mushkul vaziyatlarda o'zini tutish tarzi va ularga jamiyat tomonidan qo'yilgan ijtimoiy kutuvlar asosida ko'rsatib beriladi. Garchi mardlik timsoli barcha uchun ma'lum darajada umumiy tushuncha bo'lib hisoblansa-da, har bir millatning tarixi, turmush tarzi va madaniyati kabi xususiyatlar mazkur konseptni turlicha talqin qilinishiga sabab bo'ladi. Maqolada ligvistik birliklar orqali mardlik konseptining milliy o'ziga xosliklari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: mardlik, asar tahlili, ingliz madaniyati, fenomen, ommaviylik, individualism, axloqiy ong.

Kirish. Mardlik fenomenining badiiy modelini chuqurroq mulohaza qilish uchun, avvalo, fenomen tushunchasining mohiyatini anglash lozim. Bu atama dastlab falsafa fani doirasida paydo bo'lgan bo'lib, tarixi Aristotelga borib taqaladi. Mazkur tushuncha fanda yangi paydo bo'lgan tushuncha yoki hodisani anglatsa, adabiyotda yangicha yondashuv, qarashni bildiradi.⁵⁵ Ma'lumki, asardagi har bir qahramon yozuvchi idroki mahsulidir. Shunga ko'ra har bir muallif o'z personajini tasvirlashda turlicha yondashadi. Maqolada mardlik konseptining tashqi omillar ta'sirida shakllanib, o'zgarib borishi o'zbek va ingliz adabiyotidagi o'ziga xos va umumiy jihatlarga asoslangan holda ko'rsatib beriladi.

Asosiy qism. Mardlik timsoli umuminsoniy xarakterga ega bo'lishiga qaramay, ma'lum darada milliy o'ziga xosliklarga ham egadir. Ingliz va o'zbek madaniyatlari taqqoslanganda, birida bu konseptning individualligi, ikkinchisida esa, aksincha, ommaviylik ruhi balandligi seziladi. Lekin mazkur tushuncha bundan-da chuqurroq ma'no kasb etgan holda, qahramonlarning psixologik-axloqiy xususiyatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.

⁵⁵ M.Y.Tilolova. Fenomenologiya istilohining falsafadan badiiy adabiyotga ko'chishi. International Organization Center of Academic Research.(2021)



Misol tariqasida, Otabek qushbegi oldida o'zini oqlash uchun hech qanday dalil kōrsata olmay, chorasiz qolgan bir vaziyatda aytgan quyidagi so'zlari uning metin irodasi timsolidir:

«— Yo'q... Isbot uchun vijdonimdan boshqa shohidim yo'q» (57-b.)

Mazkur parchada Otabek qahramoni orqali o'zbek millatiga xos jasorat va g'ururning uyg'unligi namunasi ko'rsatiladi. Xalqimizning qon-qoniga singib ketgan vijdonlilik bevosita mardlik tushunchasi bilan uyg'unlashib ketadi. Keyingi iqtibos shu fikrlarning uzviy davomidir:

«...Chunki men bu vahshiylikni ishlashda ixtiyorsiz edim: hayotingizning, nomusingizning saqlanishi buni taqozo etar edi... Albatta, men ishonamankim, siz manim bu yaxshilig'im uchun minnatdorlik qilarsiz. Lekin men bu minnatdorlikka o'zimni sazovor hisoblay olmayman.»(152-bet)

Ushbu misolda haqiqiy o'zbek millatiga xos or-nomus masalasi ko'tarilgan. Hech bir o'zbek yigiti bunday holda jim tura olmaydi, nomusi uchun kurashadi. Mazkur holatda or-nomus tuyg'usi ta'sirida favqulodda jasoratga erishgan Otabekning ko'ziga dushmanlarining soni ham ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Bundan tashqari, garchi Otabek Kumushni qutqarishda mardlik ko'rsatgan bo'lsa-da, o'zini maqtovga loyiq deb hisoblamaydi. Mana shu nuqtada esa xalqimizga xos kamtarlik belgilari ham seziladi. Yuqoridagi misollardan ko'ringanidek, jasorat timsoli o'zbek xalqi uchun milliy g'urur, or-nomus, va vijdon tuyg'ulari bilan chambarchas bog'liq jarayon hisoblanadi.

Farqli ravishda, ingliz adabiyotida mardlik biroz boshqacha tasvirlanadi. Masalan, taniqli yozuvchi Harper Lining «To Kill a Mockingbird» asarida quyidagi parcha berilgan:

Atikus Finch: «Real courage is when you know you're licked before you begin, but you begin anyway and see it through no matter what.»(120-bet)

Mazkur iqtibosdagi qahramon mardlik faqatgina g'alabani ko'zlash emas, balki mag'lubiyatni anglagan holda bo'lsa ham yengilmaslik ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur parchada personajdagi jasorat vijdon tuyg'usi ta'sirida yuzaga chiqqanni bilan oldingi asardan farqlanadi. Bundan tashqari ushbu asarda qahramon o'z fikrini baralla ifoda eta oladi. Ammo bu holat o'zbek madaniyatida sal boshqacharoq tarzda ko'rinadi. Garchi qahramonlar mard va yetuk shaxslar bo'lsa-da, muhit ularning xatti-harakatlariga birmuncha ta'sir etadi. Misol tariqasida, Otabek qo'rqmas, dovyurak yigit bo'lsa-da, ota-onasi oldida ularga yetarlicha qarshi chiqa olmaydi, bu milliy qadriyatlarimiz va ota-onaga bo'lgan hurmatning ham belgisidir.

“Yusufbek hoji yuqorida o'tkan gaplarni quruq va asossiz so'zlamag'an, balki shu turmushning rukn va asosini bir daraja aytib o'tkan, Otabek esa buni shu muhitning bir o'g'li bo'lib eshitkan edi. To'g'risi ham ul dadasi tomonidan so'zlangan haligi qonung'a qarshi chiqish uchun lozim bo'lg'an kuchka molik emas”.(76-bet)

Bir o'zi Homid boshliq yigitlarga qarshi chiqa olgan mard yigit, ota-onasi oldida deyarli so'zsiz qoladi. Bu mardlik timsolida tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladigan o'zaro qarama-qarshilikni ham ko'rsatadi. Zero, qanchalik jasoratli bo'lmasin ota-onasiga nisbatan,





hurmat ila o'sgan Otabek ularga ortiqcha qarshilik qilishga botinolmaydi. Yuqorida «To Kill a Mockingbird» asari yutqazish tayin bo'lganda ham chekinmaslik ulug'lansa, bu misolda Otabek natija uning foydasiga hal bo'lishi mushkulligini anglaganligi va otanasining orzusini bir farzand sifatida amalga oshirishga urunganligi sababli ularga qarshi chiqishdan ko'ra bo'ysunishni o'ziga lozim topadi.

Yana bir misolda Attikus mardlikni moddiy narsalarga aloqadormasligini ko'rsatadi. Garchi u miltiqdan qanday foydalanishni bilsa-da, Jem va Skot bu holatni faqatgina miltig'i borlar yoki uni ishlata olasiganlar mard bo'lishadi, deb o'ylab noto'g'ri talqin qilishlarini taxmin qilib ulardan buni yashiradi.

«... Instead getting the idea that courage is a man with a gun in his hand».(120-bet)

Atikus mardlik qo'lida kuch, masalan, miltiq borligida jasorat ko'rsatish emas, aksincha, g'alaba qozonish ehtimoli juda oz bo'lgan holatda ham, ya'ni Tom Robinsonni qutqarishdek mushkul vaziyatda, to'g'ri qaror qabul qilish – Robinsonni himoya qilish asl mardlik ekanligini ularga uqtiqmoqchi bo'ladi.

Asarda boshqa dovyurak qahramonlar ham bor. Misol tariqasida, Maudi xonim uyini yonib ketsa ham tushkunlikka tushmaydi. Aksincha oldingisidan ham kattaroq va yaxshiroq bog' yaratishini ta'kidlaydi.

«O'tkan kunlar» asaridagi Kumush ham garchi ayollarga xos ibo-hayoli, uyatchan bo'lsa-da, otasi va turmush o'rtog'ini qutqarish uchun qo'rqmasdan xatni qushbegiga olib boradi.

«Qizim, sizning bunchalik zakovat va jasoratingizga otangiz bilan eringiz har qancha tashakkur aysalar va o'zlarining mundan so'ngg'i umrlarini sizning baxshishingiz , deb bilsalar arzir».(58-bet)

Demak, mardlik har ikkala millatda ham yosh yoki jins tanlamaydi, balki vaziyat taqozosi bilan o'z e'tiqodlariga sodiq bo'lgan, mulohazali har bir inson har qanday holatda o'zida jasorat topa oladi.

Xulosa. Asarda Kumushning ayol bo'lsa-da jasorat ko'rsatishi, Atikusning esa urush-janjallarga xushi bo'lmasa-da vijdon yuzasidan Robinsonni qutqarishga chog'lanishi mardlik ma'lum bir shaxsga mansub tushuncha emasligini ta'kidlaydi. Otabekning otanasi bilan suhbat, yoki aksincha Kumushning uy ahli bilan bo'lgan munosabatida qahramonlarning xatti-harakatlarida milliy o'ziga xoslik, oilaga hurmat va kezi kelganda haq bo'lsa-da ularga bo'ysunish ko'rsatilgan. Bu kabi misollar millat, muhit, va boshqa omillar ta'sirida mardlik fenomeni badiiy tarzda o'zgarishi mumkinligi, jasorat har bir personaj uchun turlicha hissiyotlar va qadriyatlar birligi sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.





Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qodiriy. *O'tkan kunlar*. Sharq, 2018.
2. Harper Lee. *To kill a mockingbird*. Arrow books, 2015
3. M.Y. Tilolova. Fenomenologiya istilohining falsafadan badiiy adabiyotga ko'chishi. International Organization Center of Academic Research. 2021
4. Bonyadi, A. (2023). Phenomenology as a research methodology in teaching English as a foreign language. Asian-Pacific Journal of Second and Foreign Language Education, 8(1). <https://doi.org/10.1186/s40862-022-00184-z>
5. Qoraboyev. J. "Mardlik" konseptual belgilari ifodasining semantik va pragmatik tahlili